



ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR TUSHUNCHASI MAZMUNI VA ULARNING MAKTABGACHA TA'LIM RIVOJLANISH MARKAZLARI FAOLIYATIDAGI O'RNI

Azimova Durdonaxon Dilmurodjon qizi

Qo'qon davlat universiteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(Maktabgacha ta'lim) yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Email. durdonaxonazimova474@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar tushunchasi, mazmuni va ularning maktabgacha ta'lim rivojlanish markazlari faoliyatidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, innovatsion yondashuvlar asosida ta'lim jarayonini tashkil etish, bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim samaradorligini oshirish, mustaqil fikrlash va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsiya, maktabgacha ta'lim, rivojlanish markazlari, interaktiv metodlar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются понятие, содержание современных педагогических технологий и их роль в деятельности центров развития дошкольного образования. Анализируются вопросы организации образовательного процесса на основе инновационных подходов, учета индивидуальных особенностей детей, развития их интеллектуального и творческого потенциала. Обоснована эффективность применения современных педагогических технологий в формировании самостоятельного мышления и коммуникативных навыков.

Ключевые слова: современные педагогические технологии, инновация, дошкольное образование, центры развития, интерактивные методы.

Abstract: This article discusses the concept, content, and role of modern pedagogical technologies in the activities of preschool education development centers. It analyzes the organization of the educational process based on innovative approaches, taking into account children's individual characteristics, and developing their intellectual and creative potential. The effectiveness of using modern pedagogical technologies in enhancing learning outcomes, independent thinking, and communication skills is substantiated.

Keywords: modern pedagogical technologies, innovation, preschool education, development centers, interactive methods.

Bugungi shiddatli zamonda fuqarolik jamiyati asoslarini rivojlantirishning eng muhim masalalaridan biri mamlakatimiz ilmiy salohiyatini rivojlantirish masalasidir.

Ilmiy salohiyatni taraqqiy ettirmay, mamlakatni iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy madaniy rivojlantirib bo‘lmaydi. Ilmiy salohiyat esa ta’lim-tarbiya vositasida yuksaladi. “Ta’lim O‘zbekiston xalqi ma’naviyatiga yaratuvchilik faoliyatini baxsh etadi. O‘zib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo‘ladi, kasb-kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodlarning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o‘tadi”¹ – deb ta’kidlagan edi birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov.

2017 yil 20 aprel kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida oliy ta’lim tizimini kelgusida kompleks rivojlantirishning eng muhim vazifalari qatorida o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan eng zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta’lim dasturlari va o‘quv-metodik materiallarni keng joriy etish, ta’lim jarayonini, oliy ta’limning o‘quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o‘qitish usullarini keng joriy etish asosida yanada takomillashtirish masalasi ham joy olgan². An’anaviy ta’lim talaba-yoshlarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatsa, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari esa bilim oluvchilarni o‘rganayotgan mavzu bo‘yicha ma’lumotlarni, o‘zlari izlanib topishlariga, mustaqil o‘zlashtirib, tahlil qilib shaxsiy mulklariga aylantirishga chorlaydi. Bunda pedagog yo‘naltiruvchi, boshqaruvchi funksiyasini o‘tab, o‘quvchi-talabalarning shaxsini shakllanishi, rivojlanishi, bilim olish dunyoqarashini tarkib topishiga sharoit, imkoniyat yaratadi.

Zamonaviy texnologiya deyilganda zamon talablarini qondira oladigan, uni ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-siyosiy va madaniy-ma’rifiy taraqqiyotini tezlashtira oladigan texnologiyani tushunmoq darkor. Zero, zamonaviy texnologiya asosini innovatsiya (inglizcha innovation – yangilik, yangilik yaratish) termini tashkil etadi. Shu ma’noda innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda pedagog va talaba faoliyatiga o‘zgartirishlar, yangilik kiritishni anglatadi va o‘quvchi madaniyati hamda ta’lim ustuvorligini ta’minlaydi.

Maktabgacha ta’lim rivojlanish markazlari faoliyatida zamonaviy pedagogik texnologiyalar muhim o‘rin egallaydi. Ushbu texnologiyalar ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish hamda ularning intellektual va ijodiy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi³. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar rivojlanish markazlarida ta’lim jarayonini individuallashtirish imkonini beradi. Har bir bolaning qobiliyati, qiziqishi va rivojlanish darajasiga mos metodlarni qo‘llash orqali ularning mustaqil fikrlashi va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalari shakllantiriladi⁴. Shuningdek, mazkur texnologiyalar yordamida ta’lim jarayoniga interaktiv metodlar, jumladan o‘yin texnologiyalari, muammoli o‘qitish va loyiha asosida o‘qitish keng joriy etiladi. Bu metodlar bolalarning faolligini oshirib, bilimlarni samarali o‘zlashtirishga yordam beradi.

Rivojlanish markazlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning muhim jihatlaridan biri – axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishdir. Multimediali vositalar, elektron resurslar va raqamli o‘yinlar orqali ta’lim jarayoni

¹ Karimov I.A. “O‘zbekiston buyuk kelajak sari” – Toshkent “O‘zbekiston” 1998, 62-bet.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-2909-сонли «Олий таълим тизimini янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори, Тошкент ш., 2017 йил 20 апрель

³ Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2006

⁴ Lev Vyotskiy. *Myshlenie i rech.* – Moskva: Pedagogika, 1982

yanada qiziqarli va samarali bo‘ladi. Natijada bolalarda o‘rganishga bo‘lgan motivatsiya ortadi. Bundan tashqari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar pedagoglarning kasbiy faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi. Ular o‘qituvchiga ta’lim jarayonini samarali rejalashtirish, nazorat qilish va natijalarni tahlil qilish imkonini beradi⁵. Maktabgacha ta’lim rivojlanish markazlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash natijasida bolalarning intellektual va ijodiy salohiyati rivojlanadi, mustaqil fikrlash va kommunikativ ko‘nikmalar shakllanadi hamda ta’lim jarayonining samaradorligi oshadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy pedagogik texnologiyalar maktabgacha ta’lim rivojlanish markazlarining samarali faoliyat yuritishida asosiy omillardan biri bo‘lib, ularning to‘g‘ri qo‘llanilishi kelajak avlodni har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov I.A. “O‘zbekiston buyuk kelajak sari” – Toshkent “O‘zbekiston” 1998, 62-bet.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-2909-сонли «Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори, Тошкент ш., 2017 йил 20 апрель.
3. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2006
4. Lev Vygotsky. Myshlenie i rech. – Moskva: Pedagogika, 1982.
5. Xodjayev B.X. va boshqalar. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent.

⁵ Xodjayev B.X. va boshqalar. *Pedagogika nazariyasi va tarixi*. – Toshkent: